



ARTICLE INFO

Received: 18th June 2024
Accepted: 24th June 2024
Online: 25th June 2024

KEYWORDS

Ecology, ground, relief, soil, underground water, atmosphere, vegetation, animal world, climate, temperature, relative humidity, solar radiation, heat, gravity, electricity, magnetic fields, industrialization, industry, geographic crust, production, car, railway, transport.

INDUSTRY AND ECOLOGY

M.M. Makhamadjonova

CAMU International Medical University, teacher

B.R.Turdimatova

CAMU International Medical University, student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12528082>

ABSTRACT

In this article, industrial ecology is a multidisciplinary field. One of the urgent problems of the present day is that damage and pollution of ecology and environment as a result of the rapid development of industry has a serious effect on human health. Its focus is on resource consumption, waste generation, and environmental impact.

SANOAT VA EKOLOGIYA

M.M. Maxamadjonova

CAMU xalqaro tibbiyot universiteti, o'qituvchi

B.R.Turdimatova

CAMU Xalqaro Tibbiyot Universiteti, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12528082>

ARTICLE INFO

Received: 18th June 2024
Accepted: 24th June 2024
Online: 25th June 2024

KEYWORDS

Ekologiya, yer, rel'ef, tuproq, er osti suvlari, atmosfera, o'simliklar, hayvonot dunyosi, iqlim, harorat, nisbiy namlik, quyosh radiatsiyasi,

ABSTRACT

Ushbu maqolada sanoat ekologiyasi ko'p tarmoqli sohaligi. Sanoatning jadal rivojlanishi natijasida ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazilishi va ifloslanishi inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Uning asosiy e'tibori resurslarni iste'mol qilish, chiqindilarni ishlab chiqarish va atrof-muhitga ta'sir qilishi bayyon qilingan.



*issiqlik, tortishish, elektr
energiyasi, magnit
maydonlari,
sanoatlashtirish, sanoat,
geografik qobiq, ishlab
chiqarish, avtomobil, temir
yo'l, transport.*

Sanoatlashuv jarayonining jadal rivojlanishi sayyoramizda ekologik vaziyatning murakkablashishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayon tufayli shaharlarda grunt, relyef, tuproq, yer osti suvlari, atmosfera havosi, o'simlik qoplami, hayvonot dunyosi, hatto iqlim ham o'zgaradi. Aynan shu sababli shaharlarda nafaqat harorat, nisbiy namlik, quyosh radiatsiyasi, balki, yerning issiqlik, gravitatsiya, elektr hamda magnit maydonlari xususiyati ham sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Sanoatning jamiyat ishlab chiqarishida mustaqil soha sifatida paydo bo'lishi, tarixiy jihatdan qishloq xo'jaligidan hunarmandchilikni ajralib chiqish jarayoni bilan bog'liq. Aholi soning ortishi, ularning turli mahsulotlarga bo'lgan talablarining ham ortib borishiga olib keldi. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi esa o'z navbatida sanoatning jadal o'sishiga va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tubdan o'zgarishiga sabab bo'ldi. Hozirgi davrning xususiyatlaridan biri sanoatlashuv jarayonining jadallashuvi hisoblanadi. Dunyo bo'yicha sanoatlashuv darajasi turlicha, masalan, Yevropada -73 foiz, Shimoliy Amerikada - 75 foiz, Rossiyada - 74 foiz.

► Umuman dunyo bo'yicha sanoatlashuv darajasi o'rtacha 45 foiz tashkil etadi. Sanoat va korxonalar atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy tarmoqdir. U geografik qobiqning barcha qatlamlariga faol salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Sanoat-ishlab chiqarishning salbiy ta'siri, asosan, ikki yo'nalishda amalga oshmoqda:

- Atrof-muhitning ifloslanishiga eng avvalo sanoatlashuv jarayoni katta ta'sir ko'rsatadi.
- Ishlab chiqarish tarmoqlarining noto'g'ri joylanishi natijasida esa ushbu jarayon ko'lami yanada kengaymoqda.
- Bu xususda sanoat ishlab chiqarishi oldinda turadi.
- Ammo barcha sanoat tarmoqlarining ekologik jihatdan "xavfsizligi" bir xil emas.

Zamonaviy jamiyatni transportisiz tasavvur qila olmaymiz

Endilikda harakatlanishni ta'minlash uchun har xil energiya turlari bilan ta'minlangan yuk mashinalari ham, jamoat transportlari ham foydalanilmoqda.

Hozirda dunyoning turli burchaklarida quyidagi transport vositalaridan foydalaniladi:

- avtomobil (avtobuslar, avtoulavlar, mikroavtobuslar);
- temir yo'l (metro, poezdlar, elektr poyezdlari);
- suv transporti vositalari
- havo (samolyotlar, vertolyotlar);
- elektr transporti (tramvaylar, trolleybuslar).

Transport odamlarning nafaqat yer yuzida, balki havo va suv orqali harakatlanish vaqtini tezlashtirishga imkon berishiga qaramay, ushbu transport vositalari atrof muhitga ham o'zining sezilarli ta'sir ko'rsatib bormoqda. Jumladan; har bir transport turi atrof-



muhitni ifloslantiradi, bugungi kunga kelib esa ifloslanishning 85% avtoulav transporti tomonidan amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar esa aholi o'rtasida turli xildagi kasalliklar sonining ortishiga sabab bo'lmoqda. Ularni oldini olish uchun esa ishlab chiqarish va sanoat korxonalarini standartlar va me'yoriy ko'rsatkichlar asosida joylashtirish, sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida qulay sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaratish, havoni tozalash tizimlari konstruksiyasini tubdan o'zgartirish, chiqindini qayta ishlash jarayonlarini ko'paytirish va takomillashtirish, sanoatlashgan shaharlar va korxonalar atrofini ko'kalamzorlashtirish ishlarini me'yorlashtirish kerak bo'ladi.

References:

1. Yormatova D. Sanoat ekologiyasi. Toshkent, 2007.
2. Yodgorova .Sh., Egamberdiyeva L.Sh., Azimova D.O. Shahar ekologiyasi. Toshkent, 2013.
3. Sh.A.Mutalov, T.T.Tursunov, M.M. Niyazova, K.M. Adilova, B.Z. Zaynitdinova, A.A. Maksudova. "SANOAT EKOLOGIYASI".